

O'QITUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH MAVZUSIGA**Bahodirova Sabrina Sardorbek qizi***Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilimli, balki ijodkor, tashabbuskor va kreativ bo'lishni talab etadi. Kreativlik – bu yangi g'oyalar yaratish, nostandart fikrlash va muammolarga original yechim topish qobiliyatidir. O'qituvchining kreativligi dars jarayonini qiziqarli, samarali va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Kreativ yondashuv o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Kreativlik pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijodkor o'qituvchi turli metod, texnologiya va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanadi. O'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun:

- treninglar va seminarlar tashkil etish;
- loyiha asosida ishlashni yo'lga qo'yish;
- muammoli ta'lim metodlarini qo'llash;
- o'z ustida ishlash va mustaqil izlanishni rag'batlantirish zarur.

Kreativlikni rivojlantirishda qulay psixologik muhit, erkin fikr bildirish imkoniyati va rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Kreativ o'qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarni ijodkorlikka, izlanishga va yangilik yaratishga undaydi. Bu esa sifatli ta'limning asosiy omillaridan biridir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifasi bo'lib, u ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.